

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗІRLIGI
MADANIYAT VАЗІRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORİYASI HUZURIDAGI
BOTIR ZOKIROV NOMİDAGI MILLİY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI



"TASDIQLAYMAN"

O'zDK huzuridagi Botir Zokirov
nomidagi Milliy estrada san'ati
instituti rektori

A.Mansurov

2024 yil "30" avgust

Ro'yxatga olindi: № BD 70210901-1.03

KOMPOZITORLIK MAHORATI

FANINING O'QUV DASTURI

- Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar
Ta'lif sohasi: 210 000 - San'at
Ta'lif yo'naliishi: 70210901 – Bastakorlik san'ati

TOSHKENT 2024

| | | | | |
|-----------------------------------|---|---|-------------------------------------|------------------------------------|
| Fan/modul kodi KOM1408 | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 1-4 | ECTS-Kreditlar 8 | |
| Fan/modul turi Majburiy | Ta'lim tili O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari 2 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lif (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Kompozitorlik mahorati | 120 | 120 | 240 |
| 2. | <p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning maqsadi - yuqori malakali, magistr darajasidagi kompozitorni MESIda o'qitib, tayyorlash san'at sohasidagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lganligi uchun musiqa san'ati borgan sari rivojlanib borishida, qirralari yanada keng ochilishida zamonaviy ijodkorlarni – kompozitorlarni tayyorlashdir.</p> <p>Fanning vazifasi - zamonaviy kompozitor keng dunyoqarashga, ya'ni insoniyat madaniyati tarixi, adabiyot, teatr, rassomlik kabi san'at sohalarida fikr yuritish bilan birga, shu janrlar bilan bog'liq asarlar yaratishga, yangi davr taqazosi bilan paydo bo'lgan kompyuterlar tizimi, yangi elektr-musiqa cholg'ularida bemalol ijod qilish texnikasidan ham habardor bo'lishni o'rgatishdan iborat.</p> | | | |
| | <p>II. Asosiy qism</p> <p>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</p> <p>Kirish</p> <p>I-II semestr</p> <p>1- mavzu.</p> <p>1-Mavzu. Kamer-cholg'u va kamer-vokal janrlarda ijod qilish</p> <p>Cholg'u ansamblarining turli tarkiblari uchun zamonaviy uslublarda musiqa. Romans va qo'shiqlar (fortepiano yoki boshqa cholg'ular jo'rligida). She'riy matn bilan ishlash.</p> <p>Oraliq nazorat</p> <p>Turli cholg'ular tarkibi uchun musiqa yaratish qobiliyati (solist cholg'u, ansambl, orkestr, xor). Uslublar xilma-xilligi: Klassik musiqa yoki zamonaviy janrlargacha bo'lgan turli uslublarga moslashish qobiliyati. Musiqiy materialni turli</p> | | | |

cholg'ular tarkibi uchun qayta ishlash, uslubiy yaxlitlik va musiqiy ifodalilikni saqlab qolish qobiliyati.

2-Mavzu. Xor uchun asarlar ijod qilish

She'riy matnlar asosida (o'zbek va jahon shoirlari ijodidan) zamonaviy shakl va janrlarda turkumli xor asarlari. She'riy matn bilan ishlash. So'z va musiqa uyg'unligiga erishish.

3-mavzu. Orkestr va Big bandlar uchun ijod qilish

Zamonaviy kompozitorlik uslublaridan foydalanib orkestrlar uchun (alohida yoki turkumli) asarlar yaratish. Cholg'ularning imkoniyatlarini keng ishlatish. Cholg'u guruhlarining o'zaro munosabatiga e'tibor qaratish.

Yakuniy nazorat

O'z kompozitsiyasini taqdim etish: O'z ishini ijro etish (shaxsiy yoki ijrochilar yordamida) va o'z ijodiy qarorlarini tushuntirish imkoniyati. Kompozitsiyani muhokama qilish: Musiqiy vositalar, uslub va shakl tanlovini asoslash, komissiya savollariga javob berish qobiliyati.

III-IV semestr

4-mavzu. Yirik asar ijod qilish

Yirik shakldagi kamer asar (trio, kvartet, kvintet va boshqalar) yaratish. G'oyani musiqada ifodalash. Musiqiy dramaturgiya. Musiqiy obraz.

5-mavzu. Vokal yoki vokal-cholg'u asari ijod qilish

Jo'rsiz yoki turli cholg'ular jo'rligida zamonaviy musiqiy til bilan vokal asari (kichik shakl yoki turkum) yaratish. So'z va musiqa uyg'unligiga erishish. Kuylash uslublariga e'tibor qaratish. Ovoz bilan ishlash.

Yakuniy nazorat

O'z kompozitsiyasini taqdim etish: O'z ishini ijro etish (shaxsiy yoki ijrochilar yordamida) va Davlat Attestasiyaga taqdim etish. Musiqiy vositalar, uslub va shakl tanlovini asoslash, komissiya savollariga javob berish qobiliyati.

III. Mustaqil ta'limgi tashkil etishning shakl va mazmuni

Mustaqil tahlimni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakklardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha mahruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (ishbilar o'yinlar, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.).

Ushbu fan bo'yicha o'rganilgan bilimlar yakka (amaliy) mashg'ulotlarda amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlab boriladi. Xususan, har bir mavzu yuzasidan cholg'uni chalib ko'rish, kuylarning biror qismini notaga qarab ijro etib, tinglovchiga ta'sirchanligi xususiyatlarini takroriy tajribalar (repetisiyalar), ijro talqinlari orqali sinab ko'rish yaxshi natija beradi.

Yakka (amaliy) mashg'ulotlar ayrim asarlarning ijro talqinlari (musiqiy yozuvlari)ni tinglab ko'rish, tajriba (repetisiya)lar vositasida o'z ijodiy (yoki ijro) yo'nalishini aniqlash kabi zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Musiqiy ijro yozushi namunalarini turli uslublarda yozib olib saqlash, sadolanish variantlarini tahlil orqali o'rganish vazifalari ham qo'yildi.

IV.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1 Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakklardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;
- kompozitor professional asarlar yozish asoslarini bilish;
- yangicha musiqiy til va fikr bilan yirik janrlarda original asarlar yaratish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (ishbilar o'yinlar, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.).

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videotekha jamg'armasidan, repetitoriylardan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozushi studiyalari, teleradiokompaniya

| | |
|----|---|
| | kanallari va konsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarini maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi. |
| 3. | <p style="text-align: center;">V. Ta'lrim natijalari /Kasbiy kompetensiyalari magistr bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> – nota yozuvining zamonaviy uslublari asosida yaratilgan asarlar; – musiqiy janrlar va shakllarning ilmiy asoslari <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi</i>; – zamonaviy bastakorlar ijodidagi janrlar va uslublarni ilmiy tahlil qilishni; – zamonaviy musiqada vujudga kelgan yangi janr va uslublarni; – turli davrlarning kompozitorlik yozuvi usullarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; – turli janrlarda kompozitsion nuqtai nazardan mantiqan to'g'ri tuzilgan kamer va yirik shakldagi musiqa asarini yaratish (kvartet, kvintet, poema, kontsert, simfoniya, kantata, oratoriya, musiqiy sahna asarlari va boshqalar) <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>. |
| 4. | <p style="text-align: center;">VI. Ta'lrim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> – Yakka mashg'ulotlar – Interfaol aqliy hujum – Visual akustik va shahsiy oriyentasiy tehnologiyasi – Kollokvium – Ijodiy asar ijrosi |
| 5. | <p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid ijodkorlik, pedagogik va musiqiy jamoatchilik faoliyatiga nazariy va amaliy tayyorgarlik, keng va turli dasturlarni bilish, nazariy malakalarini o'zlashtirish, mustaqil ravishda partitura ustida ishlash, mustaqil ravishda asar mavzusini yaratishning amaliy tajribasiga ega bo'lishi, mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish. Oraliq va yakuniy nazoratlar fanning xususiyatidan kelib chiqqan xolda 2 marotaba (kollokvium, asar ijrosi) yaratgan asarlarini tinglovi orqali o'tkazilishi mumkin.</p> |

| | |
|----|--|
| 7. | Fan dasturi Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashtiruvchi Kengashning 2024 yil « <u>30</u> <u>avgust</u> dagi <u>1</u> - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. |
| 8. | Fan/modul uchun mas'ullar: N.Narxodjaev - O'zDK huzuridagi B. Zokirov nomidagi MESI "Kompozitorlik va aranjirovka" kafedrasi professori X.Nazarov - O'zDK huzuridagi B. Zokirov nomidagi MESI "Kompozitorlik va aranjirovka" kafedrasi dotsenti, kafedra mudiri |
| 9. | Taqrizchilar: Mansurov A.M. - O'zDK, "Kompozitorlik va cholg'ulashtirish" kafedrasi professori |